

SIROJIDDIN SIDQIY XONDAYLIQIY NASRIY ASARLARINING QO'LYOZMALARI HAQIDA

Musulmonova Gulshan To'liqinova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrası

1-bosqich tayanch doktoranti

Email: musulmonovagulshan@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7401297>

Annotatsiya. *Sidqiy Xondayliqiy milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining iste'dodli vakilllaridan biridir. U nafaqat shoir, balki nasriy asarlari bilan ham o'zbek adabiyotida munosib o'rinni egallaydi. Adibning nasriy asarlari tarixiy, diniy, pand-nasihati ruhida yozilgan bo'lib, mumtoz adabiyotimizdagi hayotiy, insoniy muhabbat va odamiylik singari eng yaxshi an'analarni davom ettiradi. Ushbu maqolada Sirojiddin Sidqiyning nasriy asarlarning qo'lyozmalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *qo'lyozma, toshbosma nusxa, Begali Qosimov, qo'lyozma tavsifi.*

О РУКОПИСЯХ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СИРОДЖИДДИНА СИДКИ ХАНДАЙЛИКИ

Аннотация. *Сидки Хандайлики является одним из талантливых представителей узбекской литературы периода национального возрождения. Он не только поэт, но и своими прозаическими произведениями занимает достойное место в узбекской литературе. Прозаические произведения писателя написаны в историко-религиозном и поучительном духе и продолжают лучшие традиции нашей классической литературы, такие как жизнь, человеческая любовь и человеколюбие. В данной статье рассказывается о рукописях прозаических произведений Сироджиддина Сидки.*

Ключевые слова: *рукопись, литографическая копия, Бегаи Касимов, описание рукописи.*

ABOUT THE MANUSCRIPTS OF THE PROSE WORKS OF SIROJIDDIN SIDQI KHANDAYLIQI

Abstract. *Sidqi Khandayliqi is one of the talented representatives of Uzbek literature of the period of national renaissance. He is not only a poet, but also occupies a worthy place in Uzbek literature with his prose works. The writer's prose works are written in a historical, religious, and instructive spirit and continue the best traditions of our classical literature, such as life, human love and humanity. This article talks about the manuscripts of Sirojiddin Sidqi's prose works.*

Key words: *manuscript, lithographic copy, Begali Kasimov, description of the manuscript.*

KIRISH

Sidqiy Xondayliqiy (taxallusi) asl ism-sharifi Sirojiddin Maxdum Mirzohidoxund o'g'li 1884-yilda hozirgi Bo'stonliq tumani Xondayliq qishlog'ida tavallud topgan. Shoir, xattot, tarjimon bolgan, arab, fors tillarini o'rgangan. Ijodining boshlanishida "Shavkat", "Shevan" taxalluslarida ham ijod qilgan, keyinchalik barcha asarlarida "Xondayliqiy" taxallusini qo'llaydi, qo'lyozmalarini esa o'zi "Sirojiddin Maxdum Sidqiy" nomi bilan ko'chirgan. Xattotlikka muhabbat qo'yib, zamonasining mashhur xattoti Muhammad Shohmurod kotibga shogird

tushib, xattotlik sirlarini o'rgangan. Karimbek Kamiy, Xislat, Miskin, Toshqin, Tavallo kabi toshkentlik shoirlar bilan juda yaqin aloqa bo'lgan. Shoir ijodini g'azallar yozishdan boshlagan, uning yuzdan ortiq g'azalini o'z ichiga olgan qo'lyozma devonidagi she'rlar iste'dodli lirik shoir bo'lganligini ko'rsatadi.[4;326]

METOD VA METODOLOGIYA

Sirojiddin Sidqiyning ijodiy faoliyatini kuzatsak, u she'riyatda ham, nasrda ham, xattotlik va tarjimonlikda ham bir vaqtning o'zida tanila borganligining guvohi bo'lamiz. [6;18] Sidqiy "Tazkirayi Imomi A'zam", "Sad irshodi mullo Sidqiy Xondayliqiy", "Mezoni shariat", "Zarbulmasali Sidqiy" nasriy asarlari bilan ham adabiyotimiz xazinasiga katta hissa qo'shgan adibdir. Bu asarlar an'anaviy nasrda yozilgan. Ularning yuzaga kelishiga adibning ko'p asrlik turkiy adabiyot namunalaridan yaxshi xabardorligi, islomiy falsafa va aqidalarning o'tkir bilimdoni ekani bilan bir qatorda arab va fors tillarni yaxshi bilgani hamda fors-tojik adabiyoti namoyandalari ijodidan qilgan tarjimalari ham samarali ta'sir ko'rsatdi. [6;82] Sidqiy nasriy asarlarining mavzu ko'lami keng va rang barang. Yuksak axloq, mezonlari va ilm-ma'rifatga da'vat Sidqiyning she'riyatidagi kabi nasrida ham asosiy g'oyalardan biri hisoblanadi. Ilm va ilm sohiblarini e'zozlash kerakligini Sidqiy asarlarida takror va takror uqtiradi.[4;339] Adib nasriy merosining salmoqli qismini diniy-axloqiy asarlar tashkil qiladi. Sidqiyning nasriy qissalardan tarkib topgan agiografik asari "Tazkirai Imom A'zam" va 1914-yilda ilk marotaba toshbosmada nashr qilingan "Mezoni shariat" asarlari shular jumlasidandir. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida "Tazkirai Imom A'zam" asarining yagona toshbosma nusxasi №13831-inventar raqamli qo'lyozmada saqlanadi. Asar 104-sahifadan iborat bo'lib, 1914-yilda Toshkentda chop etilgan. Asar islom olamida Imomi A'zam nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Xanifa an-Nu'mon ibn Sobit haqidagi rivoyatlar va qissalardan tashkil topgan.

Sidqiy Xondayliqiyning "Mezoni shariat" asari 1915-yilda Toshkentda Orifjonov litografiyasida toshbosma usulida chop etilgan va 1917-yilda yana qayta nashr etilgan. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida "Mezoni shariat" asarining 4 ta nusxasi mavjud bo'lib, ular №4043, №4042, №8831, №18717-inventar raqamlarda saqlanadi. Bu nusxalarning barchasi 1915-1917-yillarda bosmadan chiqarilgan. Ba'zi manbalarga ko'ra, mazkur kitobning bir nusxasi toshkentlik kitob ixlosmandi Shotursun ota Shorahim o'g'lining shaxsiy kutubxonalarida saqlanmoqda.[6] 1992-yilda asar Mahmud Hasaniy tomonidan qayta nashr etildi. Begali Qosimov fikricha, bu asarida Sidqiy shariat mezonlarini ommabop qilib berdi, qulay dastur shakliga keltirdi.[4;337]

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

"Sad irshodi mullo Sidqiy" asarining yagona nusxasi O'ZRFA ShI qo'lyozmalar fondida №7629- inventar raqami ostida saqlanadi. [2] Ushbu raqamli qo'lyozmaga adibning "Devoni Sidqiy" va "Iktisob" (Holoti Sidqiy" ilova qilingan) asarlari ham kiritilgan. Xati nasta'liq. Asarlar 1924-yilda Toshkentda ko'chirilgan. Qo'lyozma hajmi jami 67 varaq, shundan 7 varag'i "Sad irshodi mullo Sidqiy" (Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihati") asari qo'lyozmasidir. Qo'lyozmada "Sad pand" nomi bilan ham berilgan. Asarlarga muallifning o'zi xattotlik qilgan. Ilk bor

1984-yilda nashr etilgan "Navbahor" to'plamida asardan ayrim parchalar berildi.

O'ZRFA ShI Qo'lyozmalar fondining №7631-inventar raqami ostida saqlanayotgan "Sidqiyning notamom qolgan asarlari" nomli qo'lyozmaga Sirojiddin Sidqiyning tugallanmay

qolgan asarlari kiritilgan. Maktab daftariga yozilgan 2 ta kichkina qo'lyozmada "Zarbulmasali Sidqiy" asari ham berilgan. Asar hajmi taxminan 8 varaq. Muallif dastxati. Asosan oddiy yozuvda ko'chirilgan. Harflari juda mayda, o'qish qiyin, husnixat qoidalariga rioya qilinmagan. "Zarbulmasali Sidqiy" oddiy maktab daftari varaqlariga, asosan, qizil va ba'zi yerlari qora siyoh bilan isloh qilingan eski o'zbek yozuvida ko'chirilgan. Muallif o'chirib, qaytadan yozgan joylari ko'pligini inobatga olsak, bu muallifning mashq daftari. Asar besh yuzdan ortiq maqol, matal va xalq naqlariga qo'yilgan savol va ularga to'g'ri, kinoya hamda kesatq ma'nolaridagi izoh yoki javoblardan iborat.[8;29] Sirojiddin Sidqiy o'z didaktik qarashlarini, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarga munosabatini savol-javoblar orqali ifodalashga harakat qiladi.

"Zarbulmasali Sidqiy" asari 1932-yilda Toshkentda yozilgan va 1998-yilgacha hech qaerda nashr qilinmagan, u haqda ma'lumot ham berilmagan. 1998-yilda Begali Qosimov so'zboshisi bilan nashr etilgan "Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar" (1998) to'plamida ilk bor "Zarbulmasali Sidqiy" dan namunalar berildi. To'plamda jami 121 ta savol-javob berilgan bo'lib, 100 tasi O'zRFA ShI qo'lyozmalar fondidagi nusxadan, qolgan 21 ta savol-javob Sirojiddin Sidqiyning kuyovi Obid ota qo'lida saqlanayotgan dastxat nusxadan olingan.[8; 293] Asar dastlab «Savol-javobli yuz so'z» nomi bilan yozila boshlagan. Muallif birinchi qismning musavvasidayoq savol-javobni yuztaga yetkazib qo'yadi. Biroq boshqa bir daftarda ayni shu savol-javoblarning ko'pini she'riy parchalar bilan xulosalab, ularning miqdorini besh yuzdan oshirgan, bosh varaq hoshiyasiga «Zarbulmasali Sidqiy» deb yozib qo'yan. Hozirda shulardan 268 tasi aniqlanib, jamlandi, 253 tasi esa hozirgacha noma'lumligicha turibdi.[8;29]

XULOSA

Sidqiy Xondayliqiyning nasriy asarlari qanday mavzuda yozilgan bo'lmasin hammasida didaktika, pand-nasihat ruhi yetakchilik qiladi. Bu asarlar mumtoz adabiyotimizdagi e'tiqod mustahkamligi, ilmni e'zozlash, ma'rifatparvarlik, odamiylik, to'g'rilik, qanoat, insoniy muhabbat singari eng yaxshi an'alarini davom ettiradi. Adib nasriy asarlarining katta qismi hayot tajribalaridan yig'ilgan xulosalar asosida yuzaga kelgan, u o'z xalqining farzandi sifatida o'sha davrdagi barcha yaxshi va yomon jihatlarni o'z asarlarida aks ettirgan.

REFERENCES

1. Sidqiy Xondayliqiy. "Zarbulmasali Sidqiy" Inv.№7631. O'z Fa Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
2. Sidqiy Xondayliqiy. "Sad irshodi mullo Sidqiy". Inv.№№762. Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi.
3. Sidqiy Xondayliqiy. "Mezoni shariat". Inv.№4043. Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi
4. B. Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent. 2002 321-339-bet.
5. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish - jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent. 2002 .324-342-bet.
6. Javharova R. S.S. Xondayliqiyning adabiy merosi. Dessertasiya. -T.: 1996.
7. Sidqiy Xondayliqiy. Navbahor. To'plam. 1984.
8. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar. 1998.